MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoly-igtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amally jurnal

2026-YIL

SENTYABR / 9-SON, IV-QISM



Milliy nashrlar


OAK: https://oak.us/pages/4802

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar

Google Schotar

ISSN INTERAATIONAL STANGARO SERIAL NUMBER INTERRATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz:
1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARIDA TEJAMKOR MENEJMENTNING ASOSIY TAMOYILLARI VA ULARNING AMALIYOTGA JORIY ETILISHI 9
Xakimov Umarxon Rustamjon o‘g‘li
RAQAMLI MONITORING SAMARADORLIGI VA MINTAQAVIY IQTISODIY NOMUTANOSIBLIKLAR O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI BAHOLASHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH 13
Qozaqova Munojat Sharifjanovna
TURIZM INFRATUZILMASINING IQTISODIY MOHIYATI, TARKIBIY TUZILISHI VA HUDUDIY RIVOJLANISHDAGI O‘RNI 21
Zuparova Nargiza, Yusupov Saidvali
MACHINE LEARNING MODELS IN ECONOMETRIC ANALYSIS ACROSS CENTRAL ASIA 28
Rahbar Yusupova
ОПРЕДЕЛЕНИЕ БЕЗОПАСНЫХ УСЛОВИЙ РАЗГРУЗКИ АВТОСАМОСВАЛОВ НА ОТКОС ОТВАЛА 34
Умаров Фарходбек, Саидова Лола, Умарова Мохичехра, Буриева Камола
РАЗРАБОТКА КЕРАМИЧЕСКОГО ЛЕГИРУЮЩЕГО ФЛЮСА НА ОСНОВЕ МЕСТНОГО МИНЕРАЛЬНОГО СЫРЬЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ИЗНОСОСТОЙКОСТИ НАПЛАВЛЕННОГО МЕТАЛЛА 41
Дунящин Николай, Мадалиев Самандар
INNOVATSION EKOTIZIMNING IQTISODIY MOHIYATI VA BOSHQARUV USULLARI 47
Turg‘unov Behzodbek, Karimov Muzaffar, Maraimova Umida
KUTUBXONACHILIK TA’LIMIDA TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK ISTIQBOLLAR 51
To‘ychiyeva Shoiraxon No‘monovna
YASHIL USULDA NANOKUMUSH SINTEZINING KOLLOID-KIMYOVIY ASOSLARI 57
Hoshimov Farhod, Xoldorova Ruxsora
УКРЕПЛЕНИЕ МЕХАНИЗМОВ БОРЬБЫ С ОТМЫВАНИЕМ ДЕНЕГ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ 61
Абдиев Шахбоз Сайитмуродович
AKADEMIK LITSEYLARDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA AUDIT NATIJADORLIGINI BAHOLASH 68
Kariyev Maxmudjon Ganiyevich
O‘ZBEKISTONDA TEMIR YO‘L TRANSPORTINI RAQAMLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 72
Xudoyorova Mehrangiz Murodovna
NUKUS SHAHRIDAGI KO‘P XONADONLI TURAR-JOY BINOLARI QURILISHINING SMETA NARXLARINI SHAKLLANTIRISH: LOKAL SMETA, OBYEKTLI SMETA, ERKIN SMETALI HISOB-KITOB VA SMETA ME’YORLARI 77
Tajeddinova Elmira Azatovna
VELSLASH KLINKER CHIQINDISIDAN QIMMATBAHO METALLARNI KOMPLEKS AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASINI TADQIQ QILISH 84
Qayumov Oybek, Uzoqov Shaxrizod, Qurbonov Bunyod
XORAZM VILOYATIDA AGROXIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI TAHLILI 89
Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich
O‘ZBEKISTONDA QAYTA SUG‘URTA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH: “O‘ZBEKINVEST” EISK AJ MISOLIDA 94
Mirzoyev Sayfullo Fayzulloyevich
QUYOSH FOTOELEKTR PANELLARINING ASOSIY PARAMETRLARINI TAHLILI VA MODELLARI 100
Safarov Alisher, Qo‘ziyev Zafarbek, A.X. Juraqulov
МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ТЕПЛОАККУМУЛИРУЮЩЕГО УСТРОЙСТВА НА ОСНОВЕ ПАРАФИНА, ОСНАЩЁННОГО ТЕПЛОВЫМИ ТРУБАМИ 106
Абдуллаев Нодирбек, Жураев Равшан, Шаисламов Алишер

JINOIY DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNING BANK FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISH MEXANIZMLARI 114
Rustamov Sunnatillo Rustamovich
CROSS-QUERY UTILITY MEMORY FOR RETRIEVAL-AUGMENTED GENERATION UNDER A FEEDBACK BUDGET 122
Sharifbaev Abdurakhmon
"ESG" MEZONLARI ASOSIDA NEFT VA GAZ SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI 128
Kudratxodjayeva Ziyoda Kamol qizi
MULTIMODAL MA'LUMOTLAR ASOSIDA DARS JARAYONINI INTELLEKTUAL TAHLIL QILISH TIZIMI .. 132
B. T. Izzetov
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARINING AKTIV OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI 136
Jo'rayev O'tkirbek Mansurovich
O'ZBEKISTONDA TRANSFERT NARXNI SHAKLLANTIRISHNI NAZORAT QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BASE EROSION AND PROFIT SHIFTING STANDARTLARINI INTEGRATSIYALASH 141
Abdurahimov Abror Zafarovich
XUSUSIY VA IJARA VAGONLARINI TEMIR YO'L STANSIYALARIDA VAQTINCHA JOYLASHTIRISH XIZMATINI TAKOMILLASHTIRISH 147
Shermatov Elbek, Aktamova Iroda
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA OLIY TA'LIM MOLIYAVIY BOSHQARUVIDA XORIJIY TAJRIBA 153
Alimdjanov Farrux Sunnatovich
BIBLIOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARIDA MA'LUMOTLAR SIFATI: ANIQLIK, TO'LIQLIK VA ISHONCHLILIK MUAMMOLARI 158
Soxiba Yo'ldasheva Numonovna
TRADE OPENNESS AND THE COMPOSITION OF PUBLIC EXPENDITURE: EVIDENCE FROM TRANSITION ECONOMIES 164
Maxmudov Sardorjon Sobirjon ug'li
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING STATISTIK TAHLILI 171
Muminova Mavjuda Sharifovna
GIBRID PID–FUZZY–NEURAL NETWORK ASOSIDA SINXRON MASHINALARNING QO'ZG'ATISH TIZIMINI ADAPTIV BOSHQARISH USULI 177
Aliyev Abror Muratkulovich
IOT ASOSIDAGI AQLLI UY TIZIMLARINING KIBERXAVFSIZLIK MUAMMOLARI VA HIMOYALASH MEXANIZMLARI 184
Xudoykulov Zarifjon, Habibjonova Guldofarid
INTEGRATION OF ERGONOMIC, BIOMECHANICAL, PHYSIOLOGICAL AND OPERATIONAL FACTORS IN THE DESIGN OF FUNCTIONAL EQUESTRIAN SPORTSWEAR 191
Kasimova Aziza, Isoqjonova Shaxzoda, Sidiqjanov Jafar, Ganiyeva Muhfira
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA HUDUDIY INVESTITSIYA SIYOSATINING NAZARIY VA AMALIY TAHLILI 199
Sultanov Anvar Abdullaevich
YER VA MOL-MULK SOLIQLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH 206
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi
ИНЖЕНЕРНЫЕ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМ ДЖИНИРОВАНИЯ ХЛОПКА 212
Дадажанов Арафатали Комилжанович
HUDUDIY IQTISODIY O'SISH DETERMINANTLARINI GURUHLASH VA IKKI BOSQICHLI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USLUBIYOTI 217
Turayev Baxtiyor Ergashevich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .. 224
Allamuratova Gulchexra Maxsetbaevna
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK SIYOSATINI OPTIMALLASHTIRISH: BASEL III STANDARTLARI ASOSIDA TAHLIL (MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA LIKVIDLIK RISKINI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI) 230
Xakimov Zoxid Norbo‘tayevich
ELEKTR UZATISH TIZIMLARIDA ANOMAL HOLATLARNI ANIQLASHNING MASHINAVIY O‘QITISH ALGORITMI VA APPARAT-DASTURIY MAJMUASI 237
Qodirova Laylo Sobir qizi
ASSESSMENT OF ECONOMIC SECURITY LEVELS AND ANALYSIS OF REGIONAL RISKS IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN 243
Anvar Ashirkulovich Islamov
MIKROTO‘LQIN–VAKUUM QURITGICHLARDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: KONSTRUKTIV VA TEXNOLOGIK YECHIMLAR TAHLILI 248
Baxshullayeva Mubashira Bahodir qizi
KONTREYLER TERMINALLARINING MAQBUL JOYLASHUVINI ANIQLASHNING GIS CHEKLOVLARIGA ASOSLANGAN IKKI DARAJALI MODELI 254
Yakupbayev Xamid Maratovich
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 261
Xamrakulov Eldar Mirkamilovich
SEISMIC ASSESSMENT OF HISTORIC MASONRY WITH SOIL–STRUCTURE INTERACTION: A SCOPUS BIBLIOMETRIC ANALYSIS (2010–MARCH 2025) 268
Naimaxon Musoxonovna Nasrullayeva
SHOLI URUG‘LARINING SUV SHIMUVCHANLIGI, BIOPOTENSIALI VA UNIB CHIQISH KO‘RSATKICHLARIGA MAGNIT MAYDON KUCHLANGANLIGINING TA’SIRI 277
Xayrullayev Shukurullo, N.M. Eshpulatov
РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОЙ ПЛАТЕЖНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ 283
Убайдуллаева Мафтунахон Акмалхон қизи
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАЗВИТИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА 289
Худаярова Мехрангиз Мурадовна
O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY O‘SISH SIFATINI TA’MINLASHDA BOZOR MEXANIZMLARINING HUDUDIY OMILLARI: OMILLI TAHLIL YONDASHUVI 298
Muxamedov Sanjar Husnutdin o‘g‘li
ODDIY NAPORLI QUVURLARDA ISHQALANISH KUCHINI HISOBGA OLGAN HOLDA GIDRAVLIK ZARBANI HISOBLASH 306
Eshev Sobir, Jonqobilov Ulug‘murad, Jonqobilov Sobir, Rajabov Ulug‘bek, Jonqobilov Bektemir, Xo‘shiyev Shuhrat, Ulug‘muradov Murodilla
GIDROTEXNIKA QURILISHI TA’LIMIDA RAQAMLI-GRAFIK TAYYORGARLIKNING ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 313
Jovliyeva Orasta Zokir qizi
THE ADOPTION OF WATER-SAVING IRRIGATION AMONG RURAL HOUSEHOLDS 321
Tursunkulov Uktam
ISSIQLIK QUVURLARI ASOSIDAGI QUYOSHLI SUV ISITISH TIZIMLARINING TURLI TURAR-JOY BINOLARIDA INTEGRATSIYALASHUVI: ENERGETIK, EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK TAHLILI 327
Ibragimov Umidjon, Ergasheva Nigora, Mirzayorova Sevara

DEVELOPING A BRAND TRUST MODEL FOR INSURANCE COMPANIES: THREE PROMISES, ONE SCORE AND THE LIMITS OF STRUCTURE 333
Ibragimova Maftunakhon Shukhratjon kizi
ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ МИКРОКРИСТАЛЛИЧЕСКОЙ НАНОЦЕЛЛЮЛОЗЫ И ОЦЕНКА ЕЕ КРИСТАЛЛИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЫ 342
Мирсаидова К.Д., Эгамбердиев Э.А., Холикова С.Дж.
BANK VA NOBANK MOLIYA INSTITUTLARIDAN BEVOSITA SOLIQLARNI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI 348
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi

BANK VA NOBANK MOLIYA INSTITUTLARIDAN BEVOSITA SOLIQLARNI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI

Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti, Bank va moliya kafedrasi, PhD, dotsent v.b.

Abstract. This article examines institutional, fiscal, and digital directions for improving the mechanism of direct taxation of banks and non-bank financial institutions. The study systematizes the Tax Code of the Republic of Uzbekistan, open statistical data of the Central Bank of Uzbekistan for 2025–2026, and analytical materials of international organizations on financial-sector taxation and tax administration. A comparative statistical analysis is used to assess the dynamics of assets, loans, deposits, capital, and liabilities of commercial banks and microfinance institutions. As of 1 January 2026, commercial bank assets amounted to UZS 924.8 trillion, loans to UZS 604.0 trillion, and capital to UZS 135.3 trillion, while microfinance institutions reported assets of UZS 11.8 trillion and loans and microleasing of UZS 10.6 trillion. Since publicly available data do not provide a sufficiently long and consistently formatted institution-level dataset on direct tax payments, the article deliberately avoids unsupported econometric coefficients and relies on descriptive-statistical and comparative analysis. The study proposes standardizing tax-base determination, strengthening digital fiscal monitoring, introducing risk-based control, and linking tax incentives to measurable economic outcomes.

Keywords: banks, non-bank financial institutions, microfinance institutions, direct taxes, corporate income tax, tax burden, tax base, tax administration, digitalization, risk-based control, financial stability, fiscal mechanism.

Annotatsiya. Mazkur maqolada bank va nobank moliya institutlaridan bevosita soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirishning institutsional, fiskal va raqamli yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025–2026-yillardagi ochiq statistik ma’lumotlari hamda xalqaro tashkilotlarning moliyaviy sektor va soliq ma’muriyatchiligiga oid tahliliy materiallari tizimlashtirildi. Banklar va mikromoliya tashkilotlarining aktivlari, kredit portfeli, depozitlari, kapitali va majburiyatlari dinamikasi qiyosiy-statistik usulda baholandi. Natijalar tijorat banklari aktivlari 2026-yil 1-yanvar holatiga 924,8 trln so‘mga, kreditlari 604,0 trln so‘mga, kapitali 135,3 trln so‘mga yetganini, mikromoliya tashkilotlari aktivlari esa 11,8 trln so‘mni, kredit va mikrolizing hajmi 10,6 trln so‘mni tashkil etganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mavjud ochiq statistik bazada institutlar kesimida bevosita soliqlar bo‘yicha to‘liq va bir xil formatdagi uzoq muddatli ma’lumotlar yetarli emasligi sababli maqolada asossiz ekonometrik koeffitsiyentlar keltirilmagan; empirik tahlil deskriptiv-statistik va qiyosiy yondashuv bilan cheklangan. Tadqiqot yakunida soliq bazasini aniqlashni standartlashtirish, raqamli fiskal monitoringni kuchaytirish, riskka asoslangan nazoratni joriy etish va soliq preferensiyalarini aniq iqtisodiy natijalar bilan bog‘lash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: banklar, nobank moliya institutlari, mikromoliya tashkilotlari, bevosita soliqlar, foyda solig‘i, soliq yuki, soliq bazasi, soliq ma’muriyatchiligi, raqamlashtirish, riskka asoslangan nazorat, moliyaviy barqarorlik, fiskal mexanizm.

Аннотация. В данной статье исследованы институциональные, фискальные и цифровые направления совершенствования механизма взимания прямых налогов с банковских и небанковских финансовых институтов. В исследовании систематизированы Налоговый кодекс Республики Узбекистан, открытые статистические данные Центрального банка Республики Узбекистан за 2025–2026 годы, а также аналитические материалы международных организаций по вопросам налогообложения финансового сектора и налогового администрирования. Динамика активов, кредитного портфеля, депозитов, капитала и обязательств банков и микрофинансовых организаций оценена с использованием сравнительно-статистического метода. Результаты показывают, что по состоянию на 1 января 2026 года активы коммерческих банков достигли 924,8 трлн сумов, кредиты — 604,0 трлн сумов, капитал — 135,3 трлн сумов, тогда как активы микрофинансовых организаций составили 11,8 трлн сумов, а объем кредитов и микролизинга — 10,6 трлн сумов. Вместе с тем, ввиду недостаточности в существующей открытой статистической базе полных и представленных в едином формате долгосрочных данных по прямым налогам в разрезе институтов, в статье не приводятся необоснованные эконометрические коэффициенты; эмпирический анализ ограничен дескриптивно-статистическим и сравнительным подходами. По итогам исследования разработаны предложения по стандартизации определения налоговой базы, усилению цифрового фискального мониторинга, внедрению риск-ориентированного контроля и увязке налоговых преференций с конкретными экономическими результатами.

Ключевые слова: банки, небанковские финансовые институты, микрофинансовые организации, прямые налоги, налог на прибыль, налоговая нагрузка, налоговая база, налоговое администрирование, цифровизация, риск-ориентированный контроль, финансовая устойчивость, фискальный механизм.

KIRISH.

Moliyaviy sektor iqtisodiyotda jamg‘armalarni investitsiyalarga aylantirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni moliyalashtirish va to‘lovlar uzluksizligini ta’minlash orqali real sektor rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda bank tizimi moliya sektorining asosiy qismini tashkil etayotgan bo‘lsa-da, mikromoliya tashkilotlari, lombardlar, sug‘urta tashkilotlari va boshqa nobank moliyaviy vositachilarning faoliyati ham kengayib bormoqda. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi tahlillarida O‘zbekiston moliya tizimining banklarga yuqori darajada tayanishi, nobank moliyaviy sektorning esa nisbatan kichik, biroq rivojlanayotgan segment ekanligi qayd etilgan [9; 10].

Moliya institutlarining o‘ziga xosligi soliqqa tortish mexanizmini shakllantirishda alohida yondashuvni talab qiladi. Banklarda daromadlarning katta qismi foizli operatsiyalar, komissiyalar va moliyaviy instrumentlar bilan bog‘liq bo‘lsa, mikromoliya tashkilotlarida kredit va mikrolizing operatsiyalarining ulushi yuqori. Shuning uchun bevosita soliqlarni hisoblashda daromadlarni tan olish, xarajatlarni chegirish, zaxiralarni hisobga olish, zararlarni ko‘chirish va moliyaviy operatsiyalarning soliqqa tortiladigan bazaga ta’siri kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. IMF tadqiqotlarida ham moliya sektorini soliqqa tortishda fiskal daromadlar bilan bir qatorda kapital tarkibi, risklarni rag‘batlantirish va moliyaviy barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni hisobga olish zarurligi ko‘rsatilgan [13–15].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliya sektorini soliqqa tortish bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda uchta asosiy yondashuv ajralib turadi. Birinchi yondashuv soliq siyosatining fiskal va neytral funksiyalariga e’tibor qaratadi. Zee moliya sektorini soliqqa tortishda moliyaviy operatsiyalarning murakkabligi va ularning iqtisodiy mazmunini soliq maqsadlarida to‘g‘ri aniqlash qiyinligini qayd etadi [17]. Keen esa banklarni soliqqa tortishda soliq mexanizmi kapital yetarliligi va tizimli risklarni kuchaytirib yubormasligi lozimligini asoslaydi [13].

Ikkinchi yondashuv soliq va bank kapitali o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. Keen va de Mooij tadqiqotida qarz va kapitalni soliqqa tortishdagi nomutanosiblik banklarning kapital tarkibiga ta’sir qilishi mumkinligi ko‘rsatilgan [15]. de Mooij, Keen va Orihara esa soliq tizimining qarz mablag‘lari orqali moliyalashtirishni nisbatan rag‘batlantirishi bank leverage ko‘rsatkichlari va moliyaviy barqarorlik bilan bog‘liqligini empirik jihatdan tahlil qilgan [14]. Maneely va Ratnovski 2024-yilda Yevropa banklaridagi yangi bank soliqlarining bazasi, stavkasi va amal qilish muddati mamlakatlar kesimida sezilarli darajada farq qilishini ko‘rsatib, bank soliqlarini joriy etishda fiskal tushumlar bilan bank kapitali o‘rtasidagi muvozanat masalasini ilgari surgan [16].

O‘zbekistondagi tadqiqotlarda Mamedova tijorat banklari foydasini soliqqa tortishning amaldagi holati va foyda solig‘i stavkalarini qiyosiy tahlil qilgan [5]. Mamedovaning moliyaviy institutlarni soliqqa tortishning normativ-huquqiy asoslariga bag‘ishlangan ishida banklar va mikromoliya faoliyatining soliq siyosati bilan bog‘liq jihatlari yoritilgan [6]. Mirramazonova tijorat banklarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishda foyda solig‘ini hisoblash va undirish masalalariga e’tibor qaratgan [7]. Yuldasheva esa soliq yukining xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatiga ta’sirini o‘rgangan [8].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda banklarni soliqqa tortish, soliq yukining moliyaviy faoliyatga ta’siri va raqamli ma’muriyatchilik masalalari alohida o‘rganilgan. Biroq bank va nobank moliya institutlarini yagona fiskal mexanizm doirasida qiyoslash, ochiq statistik ma’lumotlar asosida ularning moliyaviy ko‘lamini baholash hamda raqamli nazoratni soliq bazasini aniqlash mexanizmi bilan integratsiyalash masalalarini yanada tizimli yoritish muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot ushbu yo‘nalishlarni institutsional va amaliy takliflar asosida rivojlantirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik-statistik tahlil, nisbiy ko‘rsatkichlarni hisoblash va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari va mikromoliya tashkilotlari bo‘yicha 2025–2026-yillardagi ochiq statistik ma’lumotlari, xalqaro tashkilotlarning moliyaviy sektor va soliq ma’muriyatchiligiga oid hisobotlari hamda ilmiy maqolalar tashkil etdi [1–12].

Tadqiqotning metodologik yondashuvida ochiq statistik ma’lumotlarning mavjud tarkibi va qamrovi hisobga olindi. Bank va nobank moliya institutlari kesimida bevosita soliqlar bo‘yicha uzoq muddatli mikro yoki panel ma’lumotlarni shakllantirish imkoniyatlari bosqichma-bosqich kengayib borayotganligi sababli mazkur tadqiqotda korrelyatsion-regression va ekonometrik modellashtirishdan foydalanilmadi. Tahlil mavjud rasmiy ma’lumotlarga tayangan holda qiyosiy va dinamik-statistik usullar asosida amalga oshirildi. Kelgusida Soliq qo‘mitasi va Markaziy bankning institutlar kesimidagi o‘zaro moslashtirilgan ma’lumotlari asosida panel regressiya modelini ishlab

chiqish imkoniyati mavjud.

Hisob-kitoblarda o‘sish sur’ati quyidagi formula asosida aniqlandi:

O‘sish sur’ati = $(X_1 / X_0 - 1) \times 100$.

Aktivlarda kreditlarning ulushi:

Kreditlar / Aktivlar × 100,

kredit/depozit nisbati esa:

Kreditlar / Depozitlar × 100

formulalari asosida hisoblandi. Ushbu ko‘rsatkichlar moliyaviy sektorning kengayishi bilan birga resurslar tarkibi va kreditlash intensivligini tavsiflash imkonini beradi.

Maqola matnini tayyorlash va tahrirlash jarayonida sun’iy intellekt vositalaridan taxminan 10 foizgacha yordamchi vosita sifatida foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Markaziy bankining 2026-yil 1-yanvar holatidagi ma’lumotlari bank tizimining miqyosi va nobank segmentining o‘sish sur’atlari o‘rtasida sezilarli farq mavjudligini ko‘rsatadi. Tijorat banklari bo‘yicha 2025-yil boshidagi va 2026-yil boshidagi ko‘rsatkichlar, mikromoliya tashkilotlari bo‘yicha esa 2025-yil boshidagi va 2026-yil boshidagi rasmiy balans ma’lumotlari quyidagi jadvalda keltirilgan [2; 3].

1-jadval. Bank va mikromoliya tashkilotlarining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikasi [2; 3].

Ko‘rsatkich	Banklar 01.01.2025	Banklar 01.01.2026	O‘sish, %	Mikromoliya 01.01.2025	Mikromoliya 01.01.2026
Jami aktivlar, mlrd so‘m	769 330	924 763	20,2	7 863,7	11 803,2
Kreditlar, mlrd so‘m	533 121	604 002	13,3	7 301,6	10 569,4
Depozitlar, mlrd so‘m	308 692	417 258	35,2	-	-
Jami kapital, mlrd so‘m	114 792	135 339	17,9	2 486,7	3 483,9
Majburiyatlar, mlrd so‘m	654 538	789 424	20,6	5 377,0	8 319,4
Kreditlarning aktivlardagi ulushi, %	69,3	65,3	−4,0 p.p.	92,9	89,5
Kredit/depozit nisbati, %	172,7	144,8	−27,9 p.p.	-	-

”muallif ishlanmasi”

Jadval ma’lumotlari bank va mikromoliya sektorida sezilarli o‘sish mavjudligini ko‘rsatadi. Bank tizimi aktivlari 20,2 foizga, kreditlari 13,3 foizga, depozitlari 35,2 foizga oshgan. Natijada kredit/depozit nisbati 172,7 foizdan 144,8 foizgacha pasaygan [2]. Mikromoliya tashkilotlarida esa aktivlar 50,1 foizga, kredit va mikrolizing hajmi 44,8 foizga, kapital 40,1 foizga, majburiyatlar 54,7 foizga oshgan [3; 4].

Bevosita soliqlarni undirishda uchta asosiy masala ajralib turadi. Birinchidan, foizli daromadlar, komissiyalar, zaxiralar, qayta baholash va valyuta operatsiyalari soliq bazasini shakllantirishni murakkablashtiradi [5–7; 17]. Ikkinchidan, fiskal rag‘batlar kapital yetarliligi va moliyaviy barqarorlik bilan muvozanatli qo‘llanishi lozim [14; 15]. Uchinchidan, moliyaviy operatsiyalarning raqamlashtirilishi soliq nazoratini avtomatlashtirishni talab etadi [11; 12].

OECD yondashuvlariga ko‘ra, soliq ma’muriyatchiligida avtomatik ma’lumot almashinuvi, API va ma’lumotlar tahlilidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda [11; 12]. Shu asosda moliyaviy va soliq hisobotlarini standartlashtirish, axborot tizimlari o‘rtasida avtomatik ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yish, tafovutlarni algoritmik aniqlash va risk skoringiga asoslangan nazoratni joriy etish maqsadga muvofiq.

Xorijiy tajribada bank soliqlarining bazasi, stavkasi va qo‘llash mexanizmlari mamlakatlar kesimida farqlanadi. IMF tadqiqotlarida bunday fiskal instrumentlarning kapital yetarliligi va kredit taklifiga ta’siri ham hisobga olinishi zarurligi qayd etilgan [13; 16; 18].

2-jadval. Moliya sektorini soliqqa tortish bo‘yicha yondashuvlar va ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish [13; 16; 18]

Yondashuv	Asosiy maqsad	Afzalligi	O‘zbekiston uchun moslashtirish
Foyda asosidagi umumiy soliqqa tortish	Fiskal daromad va neytrallik	Tizimning soddaligi	Bank va NMI uchun asosiy umumiy tamoyil sifatida saqlash
Riskka bog‘langan fiskal instrumentlar	Tizimli riskni kamaytirish	Risk xarajatini hisobga olish	Faqat prudensial ko‘rsatkichlar bilan muvofiqlashtirilgan holda bosqichma-bosqich sinash
Raqamli real vaqt monitoringi	Soliq bazasi va compliance aniqligi	Nazorat xarajatini kamaytirish	Soliq–Markaziy bank ma’lumot almashinuvi va risk skoringini joriy etish
Natijaga bog‘langan soliq preferensiyasi	Ustuvor kreditlash/ investitsiyani rag‘batlantirish	Rag‘batning maqsadliligi	Imtiyozni aniq mezon va muddat bilan bog‘lash

”muallif ishlanmasi”

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bank va nobank moliya institutlaridan bevosita soliqlarni undirish mexanizmini to‘rtta o‘zaro bog‘liq blok asosida takomillashtirish taklif etiladi.

1-blok — soliq bazasini standartlashtirish. Bank, mikromoliya, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning daromad va xarajat elementlari bo‘yicha yagona metodik klassifikator ishlab chiqilishi hamda moliyaviy va soliq hisobotlari o‘zaro bog‘lanishi lozim.

2-blok — raqamli fiskal monitoring. Soliq qo‘mitasi, Markaziy bank va moliya institutlari axborot tizimlari o‘rtasida standartlashtirilgan API almashinuvi yo‘lga qo‘yilib, hisobotlardagi tafovutlar avtomatik aniqlanishi kerak.

3-blok — riskka asoslangan nazorat. Nazorat soliq bazasi va moliyaviy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi tafovutlar, zaxiralar dinamikasi, foyda marjasi va boshqa risk indikatorlariga asoslanishi lozim.

4-blok — natijaga bog‘langan fiskal rag‘bat. Soliq preferensiyalari aniq va o‘lchanadigan iqtisodiy natijalarga bog‘lanib, ularning amal qilish muddati, mezonlari va fiskal qiymati oldindan belgilanishi kerak.

Mazkur mexanizm soliq stavkasini o‘zgartirishdan ko‘ra, soliq bazasini aniqroq belgilash va fiskal rag‘batlarni maqsadli yo‘naltirish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Olingan natijalar Mamedova va Mirramazonovaning foyda solig‘i va soliq bazasini aniqlashga oid yondashuvlari bilan uyg‘unlashadi [5–7]. Xalqaro tadqiqotlarda esa soliq tizimining bank kapitali, leverage va moliyaviy barqarorlikka ta’siri qayd etilgan [13–15].

2025–2026-yillardagi ochiq balans ma’lumotlari moliyaviy sektorning o‘sishini ko‘rsatadi, biroq ular soliq yukining kredit yoki investitsiyaga sababiy ta’sirini bevosita isbotlamaydi. Shu sababli maqolada statistik jihatdan tasdiqlanmagan ekonometrik xulosalar keltirilmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari bank va nobank moliya institutlaridan bevosita soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirishni faqat soliq stavkasini o‘zgartirish masalasi sifatida emas, balki soliq bazasi, raqamli ma’lumotlar, risk nazorati va fiskal rag‘batlarning yagona tizimi sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatdi.

2026-yil 1-yanvar holatiga tijorat banklari aktivlari 924,8 trln so‘mga, kreditlari 604,0 trln so‘mga va kapitali 135,3 trln so‘mga yetgan. Mikromoliya tashkilotlari aktivlari 11,8 trln so‘mni, kredit va mikrolizing hajmi esa 10,6 trln so‘mni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar nobank segmentining kichik bazadan yuqori sur’atlarda kengayayotganini ko‘rsatadi [2; 3].

Banklarda 2025–2026-yillarda depozitlarning 35,2 foizga o‘sishi kreditlarning 13,3 foizlik o‘sishidan yuqori bo‘lib, kredit/depozit nisbati 172,7 foizdan 144,8 foizgacha pasaygan. Bu resurs bazasining mustahkamlanayotganidan dalolat beradi, biroq soliqqa tortish siyosati banklarning kapitalizatsiyasi va kreditlash imkoniyatlari bilan birgalikda baholanishi lozim.

Mikromoliya tashkilotlarida aktivlar 50,1 foizga, kredit va mikrolizing hajmi 44,8 foizga o‘sgan. Shu sababli nobank institutlari bo‘yicha soliq ma’muriyatchiligini banklar uchun yaratilgan mexanizmlarning oddiy nusxasi sifatida emas, balki ularning biznes modeliga moslashtirilgan tizim sifatida tashkil etish zarur.

Ochiq statistik ma’lumotlar bazasini yanada kengaytirish hamda bank va nobank moliya institutlari kesimida soliq to‘lovlari, moliyaviy natijalar va asosiy faoliyat ko‘rsatkichlarini qamrab oluvchi uzoq muddatli ma’lumotlar bazasini shakllantirish zarurati mavjudligi sababli mazkur tadqiqotda ekonometrik modelning empirik natijalari

keltirilmagan.

Tadqiqot natijasidagi amaliy takliflar quyidagilar:

- bank va nobank moliya institutlari uchun soliq bazasining asosiy elementlarini yagona raqamli klassifikator asosida standartlashtirish;
- Soliq qo‘mitasi va Markaziy bank axborot tizimlari o‘rtasida API asosidagi ma’lumot almashinuvi va tafovutlarni avtomatik aniqlash mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish;
- riskka asoslangan soliq nazoratida moliyaviy hisobot, soliq hisoboti va prudensial ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi tafovutlardan foydalanish;
- soliq preferensiyalarini institut nomiga emas, aniq iqtisodiy natijaga bog‘lash;
- har bir preferensiya bo‘yicha fiskal qiymat, amal qilish muddati va natijadorlik indikatorlarini belgilash;
- bank va nobank moliya institutlarining bevosita soliqlar bo‘yicha ochiq agregat statistikasi uchun yagona ma’lumotlar formatini shakllantirish.

Taklif etilayotgan mexanizmning kutilayotgan natijasi soliq tushumlarini faqat stavkani oshirish orqali ko‘paytirish emas, balki soliq bazasining aniqligini va ixtiyoriy rioya qilish darajasini oshirish, nazorat xarajatlarini kamaytirish hamda fiskal rag‘batlarning real iqtisodiy samaradorligini kuchaytirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, LexUZ. LexUZ — O‘RQ-599-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida 2026-yil 1-yanvar holatiga (banklar kesimida) ma’lumot. — Toshkent, 2026. Markaziy bank — rasmiy ma’lumot.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Mikromoliya tashkilotlari jamlanma balansi. 2026-yil 1-yanvar holatiga ma’lumot. — Toshkent, 2026. Markaziy bank — jamlanma balans.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar moliyaviy holati sharhi. 2025-yil yakuni. — Toshkent, 2026. Markaziy bank — 2025-yil yakuniy sharhi.
5. Mamedova G.K. Analysis of the Current State of Taxation of Commercial Banks’ Profits in Uzbekistan // *World Bulletin of Social Sciences*. — 2024. — Vol. 41. — P. 64–72. Maqolaning rasmiy sahifasi.
6. Mamedova G.K. O‘zbekistonda moliyaviy institutlarni soliqqa tortishning me’yoriy-huquqiy asoslari // *Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar*. — 2024. — T. 1, № 1. — B. 267–276. — DOI: 10.60078/3060-4842-2024-vol1-iss1-pp267-276. DOI orqali ochish.
7. Mirramazonova M. Improving the Mechanism of Taxation of Commercial Banks // *Modern Science and Research*. — 2024. — Vol. 3, Issue 4. — P. 309–312. — DOI: 10.71337/inlibrary.uz.science-research.30722. DOI orqali ochish.
8. Yuldasheva U. The Impact of the Tax Burden on the Financial Activities of Business Entities in Uzbekistan and Its Current State // *Economics and Innovative Technologies*. — 2023. — Vol. 11, № 5. — P. 356–364. — DOI: 10.55439/EIT/vol11_iss5/a38. DOI orqali ochish.
9. International Monetary Fund. *Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program — Financial System Stability Assessment* // IMF Staff Country Reports. — Washington, DC: International Monetary Fund, 2025. — No. 2025/145. — 45 p. — DOI: 10.5089/9798229015103.002. IMF — rasmiy sahifa.
10. World Bank. *Uzbekistan — Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration*. — Washington, DC: World Bank, 2025. World Bank — rasmiy hisobot sahifasi.
11. OECD. *Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration*. — Paris: OECD Publishing, 2020. — 73 p. — DOI: 10.1787/ca274cc5-en. OECD — DOI havolasi.
12. OECD. *Tax Administration Digitalisation and Digital Transformation Initiatives*. — Paris: OECD Publishing, 2025. — 49 p. — DOI: 10.1787/c076d776-en. OECD — DOI havolasi.
13. Keen M. The Taxation and Regulation of Banks // *IMF Working Papers*. — 2011. — No. 2011/206. — DOI: 10.5089/9781463902179.001. IMF — rasmiy sahifa.
14. de Mooij R.A., Keen M., Orihara M. Taxation, Bank Leverage, and Financial Crises // *IMF Working Papers*. — 2013. — No. 2013/048. — 26 p. — DOI: 10.5089/9781475577709.001. IMF — rasmiy sahifa.
15. Keen M., de Mooij R.A. Debt, Taxes, and Banks // *IMF Working Papers*. — 2012. — No. 2012/048. — 32 p. — DOI: 10.5089/9781463937096.001. IMF — rasmiy sahifa.
16. Maneely M., Ratnovski L. Bank Profits and Bank Taxes in the EU // *IMF Working Papers*. — 2024. — No. 2024/143. — 26 p. — DOI: 10.5089/9798400281198.001. IMF — rasmiy sahifa.
17. Zee H.H. (ed.). *Taxing the Financial Sector: Concepts, Issues, and Practice*. — Washington, DC: International Monetary Fund, 2004. — 93 p. — DOI: 10.5089/9781589063167.071. IMF — rasmiy sahifa.
18. Claessens S., Keen M., Pazarbasioglu C. (eds.). *Financial Sector Taxation: The IMF’s Report to the G-20 and Background Material*. — Washington, DC: International Monetary Fund, 2010. IMF — rasmiy hisobot.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100